

IJTIMOIY FAOLIYATDAGI AXLOQIYLIK MEZONLARI

Solmonova Sitora Farxodjon qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

Email: solmonovadavronbek.1997@gmail.com

UO`K:316.42:17

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilmiy faoliyatda axloqiylik mezonlarining mazmuni, ahamiyati va ilmiy jarayon sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Ilmiy halollik, plagiatdan tiyilish, ma'lumotlarni soxtalashtirmaslik, ishtirokchilar huquqlarini himoya qilish kabi asosiy etik tamoyillar yoritiladi. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasini to'g'ri tanlash, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, hammualliflikda adolatni saqlash va ilmiy natijalarni shaffof tarzda taqdim etishning zarurligi ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy axloq jamiyat ishonchini mustahkamlash va ilmiy taraqqiyotni jadallashtirishda muhim omil ekanini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ilmiy axloqiylik, ilmiy halollik, plagiat, tadqiqot etikasi, manfaatlar to'qnashuvi, ma'lumotlarning haqqoniyligi, ilmiy mas'uliyat, ilmiy madaniyat, ishtirokchilar huquqlari, maxfiylik.

*Солмонова Ситора Фарходжон кизи**магистрант Наманганского государственного университета***КРИТЕРИИ ЭТИЧНОСТИ В СОЦИАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Аннотация: В данной статье анализируются содержание, значение и влияние критериев этичности в научной деятельности на качество исследовательского процесса. Освещаются такие ключевые этические принципы, как научная честность, недопущение плагиата, отказ от фальсификации данных, защита прав участников исследования. Также подчеркивается важность правильного выбора методологии, предотвращения конфликта интересов, соблюдения справедливости в соавторстве и прозрачного представления научных результатов. Полученные выводы

подтверждают, что научная этика является важным фактором укрепления доверия общества и ускорения научного прогресса.

Ключевые слова: научная этичность, научная честность, плагиат, исследовательская этика, конфликт интересов, достоверность данных, научная ответственность, научная культура, права участников, конфиденциальность.

Solmonova Sitora Farxodjon qizi

Master's student of Namangan State University

ETHICAL CRITERIA IN SOCIAL ACTIVITY

Annotation: This article analyzes the essence, significance, and impact of ethical criteria in scientific activity on the quality of the research process. Key ethical principles such as academic integrity, avoidance of plagiarism, prevention of data falsification, and protection of research participants' rights are examined. The article also highlights the importance of selecting an appropriate methodology, preventing conflicts of interest, ensuring fairness in co-authorship, and presenting scientific results transparently. The findings emphasize that scientific ethics plays a crucial role in strengthening public trust and accelerating scientific progress.

Keywords: scientific ethics, academic integrity, plagiarism, research ethics, conflict of interest, data reliability, scientific responsibility, research culture, participants' rights, confidentiality.

Kirish

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida axloqiylik masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Insonlarning o'zaro munosabatlari, ijtimoiy mas'uliyati, qaror qabul qilish jarayonlari hamda jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi faoliyatlar axloqiy mezonlar asosida amalga oshirilishi zarur. Ijtimoiy faoliyatda axloqiylikning buzilishi ishonchsizlik, adolatsizlik va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu bois axloqiy me'yorlar jamiyat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Ijtimoiy faoliyatdagi axloqiylik mezonlari shaxsning ijtimoiy ongini, mas'uliyatini va fuqarolik

pozitsiyasini shakllantiradi. Halollik, adolat, mas'uliyat, inson qadr-qimmatiga hurmat kabi tamoyillar ijtimoiy munosabatlarni sog'lomlashtirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada ijtimoiy faoliyat jarayonida amal qilinishi zarur bo'lgan axloqiy mezonlar, ularning mazmuni va jamiyat rivojiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy faoliyatdagi axloqiylik mezonlari muammosi falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlarida keng tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar axloqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Klassik falsafiy manbalarda axloqiylik tushunchasi jamiyat barqarorligining asosiy sharti sifatida talqin qilinadi. Aristotel, Immanuil Kant kabi mutafakkirlar axloqiylikni inson faoliyatining bosh mezoni deb hisoblab, adolat, burch va mas'uliyat tushunchalarini markaziy o'ringa qo'yganlar. Ularning qarashlari zamonaviy axloqiy konsepsiyalar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda ijtimoiy faoliyat va axloqiylik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyat ishonchi, ijtimoiy kapital va fuqarolik faolligi tushunchalari orqali tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar axloqiy me'yorlarga amal qilinishi ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashini ta'kidlaydilar. Psixologik adabiyotlarda esa axloqiylik shaxsning ichki qadriyatlari, motivatsiyasi va ijtimoiy xulq-atvori bilan bog'liq holda o'rganiladi. Xususan, axloqiy ong, empatiya, mas'uliyat hissi ijtimoiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Milliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida ijtimoiy faoliyatda axloqiylik mezonlarini shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning roli alohida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy faoliyatdagi axloqiylik mezonlarini amaliy mexanizmlar orqali joriy etish masalasi yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab, ijtimoiy faoliyatda axloqiylik mezonlarini tizimli tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ijtimoiy faoliyatdagi axloqiylik mezonlarining mazmuni, ularning shakllanish omillari va jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy izlanishning umumiy va maxsus metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida axloq falsafasi, ijtimoiy psixologiya va sotsiologiya fanlarida shakllangan konsepsiyalar, shuningdek, milliy va xorijiy olimlarning ijtimoiy faoliyat va axloqiylikka oid qarashlari olindi. Dialektik yondashuv asosida ijtimoiy faoliyat va axloqiy mezonlarning o'zaro bog'liqligi dinamik jarayon sifatida tahlil qilindi. Tadqiqotda tahlil va sintez metodlari orqali ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda konseptual yondashuvlar tizimli o'rganildi. Taqqoslash metodi yordamida turli davr va mualliflarning axloqiylik haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Mantiqiy umumlashtirish va induksiya-deduksiya metodlari asosida xulosalar ishlab chiqildi. Shuningdek, empirik metodlardan kuzatish, so'rovnoma va suhbat metodlari qo'llanilib, ijtimoiy faoliyat jarayonida axloqiy mezonlarga amal qilinish darajasi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar statistik va kontent-tahlil metodlari yordamida qayta ishlanib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi ta'minlandi. Tadqiqot jarayonida axloqiy tamoyillarga rioya qilinib, ishtirokchilarning roziligi, maxfiyligi va huquqlari to'liq ta'minlandi.

Tahlil va natijalar

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o'rganadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik,

jaholat va kamolatning o'zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o'zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o'rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari ham bor. Bunday axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy faoliyatning har bir bosqichi metodologik aniqlikni va axloqiy poklikni talab qiladi. Metod tanlashda qulay variant emas, balki ilmiy jihatdan eng mantiqli va ishonchli usulni qo'llash zarur. Yorqin misol: natijani "chiqarish uchun" kerakli usulni tanlash axloqiy buzilishdir. Ilmda xatolik — bu uyat emas, yashirish — katta axloqsizlik. Olim xato qilganini ochiq tan olsa, bu uning ilmiy madaniyati darajasini ko'rsatadi. Natijalarni butun jamiyatga yoymaslik, qamrovi cheklangan tadqiqotni universal deb ko'rsatmaslik kerak. Psixolog sifatida bilishning zarur: ilmiy axloqiylik nafaqat tartib, balki shaxsning ichki holati bilan bog'liq. "Menga maqola kerak" motivi emas, "Men haqiqatni izlayapman" motivi axloqiy hisoblanadi. Shu farq ilmiy sifati va axloqiyligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Har bir olimda tasdiqlash xatosi bo'ladi. Olim faqat o'z fikrini tasdiqlaydigan dalillarni izlamasligi kerak — bu axloqiy buzilishga yaqinlashtiradi. Haqiqiy olim tanqidni himoyalanih emas, o'sish vositasi sifatida ko'radi. Agar olimning tadqiqot natijasidan shaxsan pul yoki manfaat olishi kutilsa, bu ochiq aytilishi shart. Talabani "o'z fikriga moslab" baholash, hammuallif qilib qo'yish, mansab uchun natijani bo'rttirish — bularning barchasi axloqiy buzilishdir. Olim siyosiy, diniy yoki tashkilot manfaatlari ta'siriga berilib tadqiqotini buzmasligi kerak. Raqobat — taraqqiyot omili, lekin bir-birini yomonlash, ma'lumot yashirish, yolg'on tarqatish — axloqsizlikdir. Ilmiy yetakchilar yosh tadqiqotchilarga yordam berishi, ularni rivojlantirishi axloqiy burch hisoblanadi. Olim o'z g'oyasini erkin ayta olishi, tahdid, bosim yoki masxaralashdan qo'rqqmasligi kerak. Bugungi kunda ilmiy jarayonning katta qismi raqamli muhitga ko'chgan. Bu yangi axloqiy masalalarni yuzaga chiqaradi. Tadqiqot ishtirokchilarining

ma'lumotlarini himoyalash — jiddiy etik talab. Noto'g'ri generatsiyalangan dalillarni ishlatmaslik zarur. Taqrizga yuborilgan maqoladagi g'oyalarni o'g'irlash — ilmiy dunyoning eng past xiyonatlaridan biri. O'z sohasida ko'nikmaga ega bo'lgan taqrizchilarni tanlash. Ilmiy jurnallar kompetent baholovchilarni tanlamasa, ilmiy sifat buziladi. Ayrim tadqiqotlar noto'g'ri talqin qilinsa, aholida qo'rquv yoki chalkashlik paydo bo'lishi mumkin.

Xulosa

Ijtimoiy faoliyatdagi axloqiylik mezonlari jamiyat barqarorligi, ijtimoiy ishonch va fuqarolik mas'uliyatini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida axloqiylikning halollik, adolat, mas'uliyat, shaffoflik va inson qadr-qimmatiga hurmat kabi asosiy tamoyillari ijtimoiy munosabatlar sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Axloqiy me'yorlarga amal qilinishi ijtimoiy faoliyat samaradorligini oshirishi, ularning buzilishi esa ishonchsizlik va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishi asoslab berildi. Shuningdek, ijtimoiy faoliyatda axloqiylik mezonlarini shakllantirishda ta'lim-tarbiya, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining o'rni muhim ekani belgilandi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy faoliyatda axloqiy madaniyatni rivojlantirish jamiyat taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bois axloqiylik mezonlarini tizimli ravishda joriy etish va amaliy mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. — Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Kant I. Axloq metafizikasining asoslari. — Moskva: Nauka, 1995.
4. Aristotel. Nikomax axloqi. — Toshkent: Fan, 2002.
5. Weber M. Ijtimoiy harakat nazariyasi. — Moskva: Progress, 1990.
6. Durkheim É. Jamiyat va axloq. — Moskva: Akademicheskii proyekt, 2001.
6. Bauman Z. Axloq va jamiyat. — Cambridge: Polity Press, 1993.
7. Kohlberg L. Essays on Moral Development. — San Francisco: Harper & Row, 1984.

7. Bandura A. Moral Disengagement. – New York: Worth Publishers, 1999.
8. Giddens A. Sociology. – Cambridge: Polity Press, 2013.
9. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. – Moskva: Aspekt Press, 2010.
10. Asmolov A.G. Shaxs psixologiyasi. – Moskva: Smysl, 2007.